

TILSHUNOSLIKDA TRANSPOZITSIYA HODISASI VA UNING DARIY TILIDA O'RGANILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667807>

Uktamova Xilolaxon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, katta o'qituvchisi, PhD

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikda transpozitsiya hodisasining mohiyati, tarixiy rivoji, turlari va lingvistik modellari yoritiladi. Xususan, transpozitsiyaning sintaktik va morfologik shakllari, uning funksional va semantik ko'rinishlari hamda dariy tilida bu jarayonning namoyon bo'lishi tadqiq qilinadi. Fors tilidagi tadqiqotlar asosida dariy tilidagi transpozitsion modellarning mavjudligi va o'ziga xosliklari aniqlanadi. Maqolada so'z turkumlari o'rtasidagi ko'chish, leksik-semantik va grammatik omillar kontekstida tahlil qilinadi. Shuningdek, transpozitsiya va konversiya o'rtasidagi farqlar yoritilib, dariy tilida ularning ifodalanish xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar:

Transpozitsiya, konversiya, so'z yasalishi, dariy tili, fors tili, funksional transpozitsiya, morfologik transpozitsiya, substantivatsiya, leksik o'zgarish.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается явление транспозиции в языкознании: его сущность, историческое развитие, типы и лингвистические модели. Особое внимание уделено синтаксической и морфологической транспозиции, функциональным и семантическим проявлениям, а также анализу этого процесса в языке дари. На основе данных по персидскому языку выявляются модели транспозиции в языке дари. Переход между частями речи рассматривается в лексико-семантическом и грамматическом аспектах. Также проводится различие между транспозицией и конверсией, описываются их особенности в языке дари.

Ключевые слова: *Транспозиция, конверсия, словообразование, язык дари, персидский язык, функциональная транспозиция, морфологическая транспозиция, субстантивация, лексические изменения.*

ABSTRACT

This article explores the phenomenon of transposition in linguistics, covering its definition, historical development, types, and linguistic modeling. It focuses particularly on syntactic and morphological transposition, its functional and

semantic aspects, and the manifestation of this process in the Dari language. Drawing from Persian linguistic studies, the paper identifies and discusses transpositional patterns within Dari. The study analyzes category shifts among parts of speech in both lexical-semantic and grammatical contexts. It also clarifies the distinction between transposition and conversion and emphasizes how each is reflected in Dari.

Keywords: *Transposition, conversion, word formation, Dari language, Persian language, functional transposition, morphological transposition, substantivization, lexical change.*

Tilshunoslikda transpozitsiya hodisasi soʻzlarning dastlabki grammatik yoki sintaktik roldan chiqib, boshqa bir soʻz turkumi yoki sintaktik vazifaga oʻtishi jarayonini anglatadi. Bu hodisa tilning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega boʻlib, soʻzlarning fleksibil xususiyatini ochib beradi. Transpozitsiya natijasida soʻzlar yangi grammatik vazifalarni bajarishi, kontekstga qarab maʼnosi oʻzgarishi yoki yangi semantik funksiyalarni qabul qilishi mumkin.

Transpozitsiya (lotincha *transpositio* – “oʻzgartirish”) – bu bir til shaklini boshqa shakl (yaʼni, uning paradigmatic qarshisi) funksiyasida ishlatishdir¹. Ushbu atama tor va keng maʼnolarga ega. Agar keng maʼnoda qaralsa, “transpozitsiya har qanday til shaklini, masalan, zamonlarning transpozitsiyasini (hozirgi zamonni oʻtgan yoki kelajak zamoni oʻrnida ishlatish), maqomlarning (imperativni indikativ yoki shartli holatda ishlatish) va kommunikativ turdagi gaplarni (savol gapini hikoya gapining oʻrnida ishlatish) oʻz ichiga oladi. Boshqacha aytganda, “transpozitsiya grammatik shaklning funksional maʼnolarini ishlatishni anglatadi, bu maʼnolar oʻzining genetik maʼnosidan maʼlum darajada chetga chiqadi. Transpozitsiyaning chekka bosqichi – bu funksional maʼnoning oʻzini shaklning dastlabki, genetik maʼnosi bilan bogʻliq boʻlmagan holatga kelishidir”². Transpozitsiya atamasi, shuningdek, leksikada turli xil oʻzgarishlar va metaforalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Transpozitsiya hodisasi qadimgi yunon tilshunoslari tomonidan oʻrganilgan boʻlib, bu jarayon **Aristotel** va uning shogirdlari tomonidan eʼtirof etilgan. Keyinchalik lotin tilida ham transpozitsiya keng tadqiq etilgan. Oʻrta asrlarda arab tilshunoslari ham transpozitsiyani oʻrganganlar. Xususan, **Sibavayh** arab grammatikasida soʻzlarning sintaktik va morfologik oʻzgarishini tahlil qilgan va transpozitsiyaning turli shakllarini aniqlagan.

¹ Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 519.

² Тимофеев К.А. О транспозиции временных форм глагола в русском языке / К. А. Тимофеев // История языка. Новосибирск, 1999. — С. 3-7.

Biroq tilshunoslik sohasida transpozitsiya masalasini birinchi bo‘lib ko‘rib chiqqan **F. de Sossyur** til birliklarining doimiy rivojlanish va o‘zgarish xususiyatlarini ta’kidlab, transpozitsiyani bu jarayonning tabiiy qismi sifatida ko‘rsatadi.

Sh. Balli esa tilshunoslikda alohida hodisa ekanligini qayd etgan, keyingi davr lingvistlari uning bu terminini rivojlantirganlar³. U transpozitsiyaning ikki tipini farqlaydi: 1) ramzning leksik ma’nosi o‘zgarmagan holda boshlang‘ich sintaktik vazifasining o‘zgarishi – funksional va 2) so‘zning sintaktik vazifasi bilan parallel ravishda yangi leksik ma’no kasb etishi – semantik transpozitsiya. Keyinchalik bu ikki tip leksik va sintaktik derivatsiya sifatida taqqoslandi⁴.

V.V. Vinogradov transpozitsiyani so‘zlarning sintaktik va morfologik jihatdan yangi funksiyaga o‘tishi sifatida ta’riflaydi⁵. **P.A. Soboleva** nuqtai nazariga ko‘ra, “transpozitsiyani tilning tuzilishi va ishlashida katta rol o‘ynaydigan assimetriyaning bir shakli sifatida ko‘rish mumkin. Ko‘plab filologlar ushbu jarayon tilning nominativ imkoniyatlarini kengaytirishga, so‘zlarning kombinatsiyasiga, ma’no nozikliklarini ifodalash uchun sinonimlar yaratishga yordam berishini ta’kidlashadi”⁶.

I.B. Rubertning fikriga ko‘ra, “zamonaviy lingvistikada transpozitsiyani ko‘pincha so‘z turkumlarining funksional jihatdan yaqinlashish mexanizmi sifatida ko‘rishadi”⁷. **X. Paul** transpozitsiyani so‘z turkumlari orasidagi o‘zaro o‘tish jarayoni sifatida tushuntiradi. **A. Meillet** transpozitsiyani so‘zlarning turli vaziyatlarda yangi grammatik funksiyalarni bajarishi, deb talqin qiladi. **R. Jakobson** transpozitsiyani kommunikativ maqsad va kontekstga qarab so‘zlarning o‘zgarishi bilan bog‘laydi.

Lingvistikada transpozitsiya jarayonining ikki bosqichi aniq ajratiladi:

1. **Sintaktik transpozitsiya**, yoki to‘liq bo‘lmagan transpozitsiya, bu jarayonda faqatgina boshlang‘ich birlikning sintaktik funksiyasi o‘zgaradi, lekin uning so‘z turkumi o‘zgarmaydi. Bu so‘zlarning bir-biriga funksional o‘zaro ta’siri uchun keng tarqalgan usuldir. Sintaktik transpozitsiya yoki funksional transpozitsiya — bu sintagmatik jarayon bo‘lib, u bir so‘z turkumiga mansub bo‘lgan so‘zni boshqa so‘z turkumiga xos sintaktik funksiyada ishlatishni o‘z ichiga oladi. Bu

³ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Издательство иностранной литературы, 1955. – С. 126.

⁴ Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова. – М.: Наука, 1981. – С. 146.

⁵ Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения / В.В. Виноградов. – Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Высшая школа, 1975. – 558 с.

⁶ Соболева П.А. О понятии парадигмы в формообразовании и словообразовании // Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1979. – С. 74.

⁷ Руберт И.Б. Переход от синкретизма к дискретности как тенденция общезыковых и внутритекстовых эволюционных аналитических процессов / И.Б. Руберт // Теория языка и практика преподавания. – Архангельск: Издательство Архангельского университета, 2001. – С. 217.

transpozitsiyaning vositasi soʻz shakli (“ota” -> “otaning uyi”), semantik muhit, desemantizatsiyalangan soʻz (masalan, “yosh” -> “yosh odam”, transpozitsiya “yosh”) boʻlishi mumkin.

2. **Toʻliq yoki morfologik transpozitsiya**, bunda yangi soʻz turkumini tashkil etuvchi soʻz hosil boʻladi. Bu transpozitsiyaning vositalari afiksatsiya va konversiya hisoblanadi⁸.

Sintaktik va morfologik transpozitsiya yoki konversiya masalalari lingvistik tahlil uchun katta qiziqish uygʻotadi. Sintaktik transpozitsiya oxirgi transpozitsiyaning dastlabki bosqichidir. E. Kurilovichga koʻra, “toʻliq transpozitsiya til tarixida sodir boʻlib, soʻz (soʻz shakli) oʻzining leksik-semantik ajralishini yoki funksional oʻzgarishini koʻrsatadi: masalan, ot va sifatlarning adverbializatsiyasida holning affiksasi sufiksga aylanishi”⁹.

Sintaktik hosil qilish sohasiga substanitivatsiya kabi morfologik turlar kiradi, yaʼni turli soʻz qismlarining otlar kategoriyasiga oʻtishi (feʼllar, sifatlar, sanab oʻtilganlar, sifatlashgan feʼllar). Bu jarayon substanitivatsiya deb ataladi¹⁰. Substanitivatsiya — bu qadimgi va rivojlanayotgan jarayon boʻlib, baʼzi sifatlar allaqachon otlarga aylangan.

Transpozitsiya tushunchasini oʻrganish orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi, bu holatda suffiks yordamida, oʻzgarishsiz, lekin umumiy soʻz turkumi maʼnosi bilan farq qiladigan soʻzlar hosil boʻlishi mumkin, masalan: “sekin” – “sekinlik”, “bugun” – “bugungi”, “tushunish” – “tushunish”.

Dariy tilida transpozitsiya hodisasi oʻrganilmagan. Biroq bundan yarim asr muqaddam L.S. Peysikov « Транспозиция как способ словообразования в иранских языках» maqolasida¹¹ fors va baʼzi eroniy tillarda affikssiz soʻz yasallishining qonun-qoidalarini tavsiflash orqali dariy tilida ham bu hodisaning kelgusi tadqiqi uchun nazariy manba yaratdi. Qolaversa, fors tilida transpozitsiya tadqiqiga doir mavjud materiallar¹² bu usul haqida tegishli xulosalar chiqarishga

⁸ Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 519.

⁹ Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике: сб. ст. / под общ. ред. В.А. Звегинцева. М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – С. 57.

¹⁰ Koʻrsatilgan asar. – B. 207.

¹¹ Пейсиков Л.С. Транспозиция как способ словообразования в иранских языках // Иранская филология /Труды науч. конф. по иранской филологии 24-27 января 1962 г. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1964. – С. 14-26.

¹² Пейсиков Л.С. Кўрсатилган мақола; Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – С. 121-145; Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Изд-во Московского университета, 1975. – С. 91-98; Shaki M. A study on nominal compounds in neo-persian. – Praha, 1964. – 116 p.; Потапов Ю.Б. Словообразовательная транспозиция в персидском языке в сопоставлении с русским: Дис. ... канд. филол. наук. – М., 1986. – 170 с.; Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 165-167.

imkon beradi. Bu nazariy umumlashmalar o‘zaro qarindosh dariy va tojik tillari uchun ham ahamiyatga ega.

L.S. Peysikov transpozitsiyaning umumiy modelini quyidagi formula bilan belgilashni tavsiya etadi: $O(S)_1 \rightarrow FD \rightarrow O(S)_2 + Pg$; bu yerda $O(S)_1$ – birlamchi asos yoki so‘z shakli (isxodnaya pervichnaya osnova ili slovoforma), FD – vazifalarning to‘liq sistemasi va yangi hosil bo‘lgan so‘zga xos distributsiya (полная система функций и дистрибуция, свойственная возникшему слову), $O(S)_2$ – dastlabki so‘zga nisbatan boshqa so‘z turkumiga tegishli yangi so‘z (возникшая основа или форма слова, принадлежащего к иной части речи по сравнению с исходным словом), Pg – yangi hosil bo‘lgan so‘zning paradigmasi (парадигматичность возникшего слова). Agar paradigma ishtirok etmasa, model oxiridagi Pg tushirib qoldiriladi¹³.

Ma’lumki, so‘z turkumlari orasidagi ko‘chish faqat so‘z yasalishi deb baholanmaydi. Ko‘chish masalasida 1) bir turkumdagi so‘zning boshqa turkum ma’nosida qo‘llanishi faqat kontekstning kuchi bilan bo‘lganmi yoki 2) shu so‘z ayrimlik holida ham boshqa turkumning belgilarini saqlaydimi, degan savol o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq o‘zbek tilshunosligida ham o‘rtaga tashlangan. Pirovardida substantivatsiya hodisasida leksik va sintaktik otlashish holatlari o‘zaro farqlanishi ko‘rsatilgan edi¹⁴. Yuqorida keltirilgan model so‘z yasovchi (to‘liq) transpozitsiyaning funksional (to‘liqsiz) transpozitsiyadan farqlashda asosiy omil hisoblanadi. To‘liqsiz transpozitsiyada modelning FD qismi amalda bo‘lmaydi. Masalan, bu holatni sifat→ot munosabatlarida kuzatadigan bo‘lsak, to‘liq transpozitsiyaga بارانى *bârâni* ‘yomg‘irli’, ‘yomg‘ir(ga oid)’ → بارانى *bârâni* ‘plashch’: bu ma’no klassik fors tilida qayd qilingan¹⁵, قره قلى *qaraqoli* ‘qorako‘l(ga oid)’ → قره قلى *qaraqoli* ‘qorako‘l telpak’, پوستين *pôstin* ‘po‘stindan qilingan’, ‘yungli’ → پوستين *pôstin* ‘po‘stin’, ‘dublyonka’, دوبييتى *dubayti* ‘ikki baytli’ → دوبييتى *dubayti* ‘to‘rtlik’ kabi sifatlarning otga ko‘chishi misol bo‘lsa, to‘liqsiz transpozitsiyaga sifatlarning kvazisubstantiv ishlatilishi misol bo‘la oladi: بزرگ *bozorg* ‘katta’, ‘ulug‘ → بزرگان *besyârê* ‘az *bozorgân* ‘ulug‘ [shaxs]larning ko‘pchiligi’. Bunda ular otlik paradigmasini qabul qilsa-da, o‘z (sifat) so‘z turkumi doirasida qoladi. To‘liqsiz transpozitsiya funksional-sintaktik hodisa bo‘lib, so‘z yasalishi bo‘limida o‘rganilmaydi yoki faqat qiyosiy

¹³ Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – С. 122.

¹⁴ Bu haqda qarang: Фуломов А.Ф. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари ҳақида // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Т.: ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1949. – Б. 70-71.

¹⁵ Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, прикаспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 214.

material sifatida ko‘rib chiqiladi¹⁶. Ko‘rinadiki, to‘liq transpozitsiyada qisman omonimiya, to‘liqsiz transpozitsiyada polisemiya haqida gap ketadi.

Manbalarda transpozitsiya hodisasining o‘rta fors tili davridan boshlab asta-sekin rivojlangani va yangi fors tili davrida keng ko‘lamda tarqalgani qayd qilinadi. Ko‘plab umumiy va xususiy transpozitsion modellar (ayniqsa, konversion modellar) yuzaga kelishi natijasida so‘z turkumlariaro so‘z yasash munosabatlari jadal rivojlandi va ular tarkibi sezilarli darajada yangi leksik birliklar hisobiga boyidi. Hozirgi dariy tilida transpozitsiyaning ot→fe‘l, sifat→fe‘l, fe‘l→ot, ot→sifat, sifat→ot, sifat→ravish, sifatdash→ot, sifatdash→sifat, fe‘l yoki so‘z shakli→modal so‘z, ot→old ko‘makchi kabi modellarini ko‘rsatish mumkin. So‘zning u yoki bu kategoriya yoki vazifaga o‘tishiga ko‘ra quyidagilar farqlanadi: otlashish – substantivatsiya, sifatlashish – adyektivatsiya, fe‘llashish – verbalizatsiya, ravishlashish – adverbializatsiya, olmoshlashish – pronominalizatsiya, ko‘makchilashish – prepozitsionalizatsiya, modallashish – modalyatsiya kabi. Albatta, keyingi tadqiqotlar ko‘chishning boshqa turlarini ham ko‘rsatishi mumkin.

Transpozitsiya formulasi so‘z yasash jarayonini diaxronik (so‘zning bir leksik-grammatik kategoriyadan ikkinchi leksik-grammatik kategoriya tomon siljishi) va sinxronik (so‘zning bir turkumdan boshqasiga o‘tishining muntazam ko‘rinishlari) jihatdan ifodalaydi¹⁷. Bular o‘rtasiga qat’iy chegara qo‘yish mushkul. Transpozitsiya hodisasining leksik (so‘z yasalishi) va grammatik planlarda qaralishi bejiz emas. Bunda leksik planda yangi ma’nodagi leksik birliklarning vujudga kelishi, grammatik planda esa boshqa turkumdagi so‘zning o‘zga sintaktik funktsiya bajarishi nazarda tutiladi (leksik so‘z va grammatik so‘z). Ma’lumki, ko‘chayotgan so‘zlarda dastlab yangi semantika vujudga kelmaydi, bir xil nomemalik xususiyati saqlanaveradi: bir nomema ikki leksemani ifodalaydi. Boshqa turkumga xos grammatik (aniqrog‘i, sintaktik) xususiyat uning funktsiyasiga qo‘shimcha tarzda yuklanadi. Shuning uchun transpozitsiya hodisasining dastlabki bosqichida asosan sintaktik (grammatik) xususiyat ustun bo‘ladi. Transpozitsiya holatida qo‘llanadigan so‘z keyinchalik o‘zining so‘nggi – ko‘chgan grammatik funktsiyasida qat’iylashsa, semantikasida yangi ma’nolar vujudga kelsa, kelgusida u «yangi so‘z» bo‘lib tanilishi mumkin¹⁸.

Transpozitsiya konversiyaga qaraganda kengroq tushunchani anglatadi. Masalan, konversiya – paradigma vositasida so‘z yasash usuliga ko‘ra: چرخ *čarx* ‘g‘ildirak’ (ot-asos) fe‘l paradigmasini qabul qilib, چرخیدن *čarxidan* ‘aylanmoq’, آرام *ârâm* ‘tinchlik’, ‘orom’ (sifat-asos) orqali آرامیدن *ârâmidan* 1) ‘orom olmoq’,

¹⁶ Пейси́ков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – С. 131.

¹⁷ Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М.: Просвещение, 1973. – С. 171.

¹⁸ *Bu haqda qarang:* Турдибоев Т.Х. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси: Фил.ф.номз. ... дис. – Тошкент, 1996. – Б. 33-34.

2) ‘tinch yotmoq’ (jasad haqida) fe’l-lari yasaladi. Biroq paradigmaga ega bo‘lmagan so‘z turkumlarida: پاک *pâk* ‘toza’, ‘ozoda’, ‘pok’ sifat so‘z turkumiga oid so‘z (دل پاک *del-e pâk* ‘yuragi toza’, ‘dili pok’) ravish vazifasida ham keladi: bunda پاک *pâk* ‘butunlay’, ‘boshdan-oyoq’ ma’nolarini bildiradi: او پاک دیوانه شد *Ô pâk dêwâna šod* ‘U butunlay aqlidan ozdi’. Dariy tilida konversiya ism (ot, sifat)→fe’l (نام *nâm* ‘nom’, ‘ism’ → نامیدن *nâmidan* ‘nomlamoq’, ‘ata-moq’) va aksincha fe’l→ism (ot, sifat) (چشم *čāšm* ‘umid qil-moq’ → چشم داشت *čāšmdâšt* ‘umid’, ‘ishonch’) munosabatlarida yaqqol ko‘rinadi¹⁹.

Ma’lumki, so‘z turkumlari orasidagi ko‘chish faqat so‘z yasalişi deb baholanmaydi. Ko‘chish masalasida 1) bir turkumdagi so‘zning boshqa turkum ma’nosida qo‘llanishi faqat kontekstning kuchi bilan bo‘lganmi yoki 2) shu so‘z ayrimlik holida ham boshqa turkumning belgilarini saqlaydimi, degan savol o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq o‘zbek til-shunosligida ham o‘rtaga tashlangan. Pirovardida substantivatsiya hodi-sasida leksik va sintaktik otlashish holatlari o‘zaro farqlanishi ko‘rsatilgan edi²⁰. Yuqorida keltirilgan model so‘z yasovchi (to‘liq) transpozitsiyani funktsional (to‘liqsiz) transpozitsiyadan farqlashda asosiy omil hisob-lanadi. To‘liqsiz transpozitsiyada modelning FD qismi amalda bo‘lmaydi. Masalan, bu holatni sifat→ot munosabatlarida kuzatadigan bo‘lsak, to‘liq transpozitsiyaga بارانی *bârâni* ‘yomg‘irli, ‘yomg‘ir(ga oid)’ → بارانی *bârâni* ‘plashch’: bu ma’no klassik dariy tilida qayd qilingan²¹, قره قلی *qara-qoli* ‘qorako‘l(ga oid)’ → قره قلی *qaraqoli* ‘qorako‘l telpak’, پوستین *pôstin* ‘po‘stindan qilingan’, ‘yungli’ → پوستین *pôstin* ‘po‘stin’, ‘dublyonka’, دوبیتی *dubayti* ‘ikki baytli’ → دوبیتی *dubayti* ‘to‘rtlik’ kabi sifatarning otga ko‘chishi misol bo‘lsa, to‘liqsiz transpozitsiyaga sifatarning kvazi-substantiv ishlatilishi misol bo‘la oladi: بزرگ *bozorg* ‘katta’, ‘ulug‘ → بزرگان *bozorgân* ‘ulug‘ [shaxs]larning ko‘pchiligi’. Bunda ular otlik paradigmasini qabul qilsa-da, o‘z (sifat) so‘z turkumi doirasida qoladi. To‘liqsiz transpozitsiya funktsional-sintaktik hodisa bo‘lib, so‘z yasalişi bo‘limida o‘rganilmaydi yoki faqat qiyosiy material sifatida ko‘rib chiqiladi²². Ko‘rinadiki, to‘liq transpozitsiyada qisman omonimiya, to‘liqsiz transpozitsiyada polisemiya haqida gap ketadi.

Dariy tilida so‘z turkumlari transpozitsiyasi va so‘z yasalişi masalasi tadqiqi muhim. Chunki so‘zning bir turkumdan boshqasiga o‘tishi boshqa leksik-grammatik

¹⁹ Алимова Х. Дарий тилида сўз ясаиши. Монография. – Т., 2019. – Б. 38.

²⁰ *Bu haqda qarang.* Ғуломов А.Ғ. Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари ҳақида // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Т.: ЎзССР Фанлар Академияси нашриёти, 1949. – Б. 70-71.

²¹ Основы иранского языкознания. Новоиранские языки: западная группа, при-каспийские языки. – М.: Наука, 1982. – С. 214.

²² Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во Московского университета, 1973. – С. 131.

kategoriyaga oid yangi soʻzning paydo boʻlishiga olib keladi va bu jarayon oʻz navbatida soʻz yasalishi bilan chambarchas bogʻliq.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, dariy tili uzoq davr mobaynida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida fors tilining tadqiqiga oid ishlar tarkibida oʻrganildi. Fors tili leksikologiyasi va soʻz yasalishi tadqiqi natijalari dariy tilining nazariy masalalarida eʼtiborga olinishi shart, biroq toʻliq ekstrapolyatsiya qilina olmaydi. Fors tili soʻz yasalishi sohasidagi tadqiqotlar dariy va fors tillari kesishgan va farqlovchi jihatlarni belgilashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Антонович В., Колдовство Б. – Процессы. – Исследование. – С Пб.: В. Киршбаум, 1877. – 139 с.
2. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: Издательство иностранных литературы, 1955. – 126 с.
3. Виноградов В.В. Основные вопросы синтаксиса предложения / В.В. Виноградов. – Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Высшая школа, 1975. – 558 с.
4. Козлова Л.А. Функциональное сближение частей речи в английском языке: сущность, формы, механизмы и последствия: Дис... докт. филол. наук: 10.02.04: / Л.А. Козлова. – Барнаул, 1998. – 285 с.
5. Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике: сб. ст. / под общ. ред. В.А. Звегинцева. – М.: Издательство иностранной литературы. 1962. – 115 с.
6. Латышев Л.К. Межъязыковые трансформации как средство достижения переводческой эквивалентности. //Семантикосинтаксические проблемы теории языка и перевода. – М., 1936. – С. 90-107.
7. Лингвистический энциклопедический словарь [http://tapemark.narod.ru/]. URL: http://tapemark.narod.ru/les/519a.html (дата посещения: 07.04.2014).
8. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990, – 519 с.
9. Нешумаев И. В. Синтаксические трансформации при переводе английского текста на русский язык.//Лингвистические и методические проблемы русского языка как неродного: Текст: структура и анализ. – М., 1991. – С. 117-126.
10. Пейсигов Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1975. – 206 с.
11. Пейсигов Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд. МГУ, 1973. – 199 с.

12. Пейсиков Л.С. Транспозиция как способ словообразования в иранских языках // Иранская филология / Труды науч. конф. по иранской филологии 24-27 января 1962 г. – Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1964. – С. 14-26.
13. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении / А.М. Пешковский. – М.: Государственное учебно-педагогическое издательство Министерства просвещения РСФСР, 1956. – 111 с.
14. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: ООО «Издательство Астрель», ООО «Издательство АСТ», 2001. – 624 с.
15. Руберт И.Б. Переход от синкретизма к дискретности как тенденция общезыковых и внутритекстовых эволюционных аналитических процессов / И.Б. Руберт // Теория языка и практика преподавания. – Архангельск: Издательство Архангельского университета, 2001. – 269 с.
16. Соболева П.А. О понятии парадигмы в формообразовании и словообразовании // Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1979. – 139 с.
17. Тимофеев К.А. О транспозиции временных форм глагола в русском языке / К. А. Тимофеев // История языка. – Новосибирск, 1999. – 37 с.
18. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л.: Просвещение, 1941. – 620 с.
19. Щерба Л.В. Некоторые выводы из моих диалектологических лужицких наблюдений (рус.) // Приложение к книге «Восточнолужицкое наречие», 1915.
20. <https://knigi.studio/russkiy-yazyik-sovremennyy/spisokispolzovannyih-istochnikov-173870.html>
21. https://studopedia.su/15_8068_The-notion-of-GrammaticalTransposition-Grammatical-metaphor.html